

## YANGI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA YAKDIL MINTAQA G‘OYASINING FALSAFIY MOHIYATI

Sobirov Alijon Samandar o‘g‘li  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,  
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 1-bosqich magistranti  
Xashimova Muqaddas Muradxanovna  
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

### Annotatsiya

*Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida ilgari surilayotgan “yakdil mintaqa” g‘oyasining falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Unda Markaziy Osiyoni yagona tarixiy-madaniy, geosiyosiy va sivilizatsion makon sifatida anglash konsepsiyasi yoritiladi. Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorligiga to‘siq bo‘lib turgan muammolar tahlil qilingan. Yakdil mintaqa g‘oyasi o‘zaro ishonch, tenglik, suverenitetga hurmat va manfaatlar uyg‘unligiga asoslangan hamkorlik falsafasini ifodalaydi. Tadqiqotda ushbu yondashuvning tinchlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** yakdil mintaqa, o‘zaro ishonch, tarixiy ildiz, postimperial sindrom, progressive hamkorlik.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan siyosiy tanglik holatida ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qo‘shnichilik tashqi siyosati olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy jarayonlar evolutsiyasidan ma’lumki, Turon dastlab geosiyosiy atama sifatida ishlatilgan. Turon hududi ma’lum vaqtlar oralig‘ida turli nomlar bilan atalgan. Masalan, “Transoksiana”, “G‘arbiy O‘lka”, “Al-Haytal”, “Bilod-al Turk”, “Turiston”, “Turgiston”, “Vorarud”, “Movarounnahr”, “O‘rta Osiyo” kabi nomlar bilan ham

atalgan<sup>1</sup>. Shu nom bilan atalgan geografik o'lkada qadimdan eftallar, xioniylar, sostoniyalar, kushonlar kabi xalqlar yashagan.

Vaqt o'tib Turkiston hududida xonlik va amirliklar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyodagi davlatlar – Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari o'zaro urushlar va nizolar sababli iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan inqirozga yuz tutdi. Bu esa harbiy jihatdan nisbatan qudratli bo'lgan Rossiya imperiyasiga qo'l keldi va XIX asrning ikkinchi yarimida ushbu davlatlarni bosib oldi.

1917-yilda Rossiya imperiyasida yuz bergan reformatsiyadan keyin hokimiyat tepasiga bolsheviklar keldi.

1924-yilda sovet hokimiyati tomonidan milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi bilan SSSRning siyosiy-ma'muriy xaritasida Qozog'izton, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalari paydo bo'ldi. 1936-yilda SSSR Konstitusiyasiga binoan, ular ittifoqdosh respublikalar maqomini oldi. Sovet davlati parchalanganidan keyin 1991-yilda ular mustaqil bo'lib, 1993-yil 4-yanvarda bo'lib o'tgan uchrashuvda esa o'zlarini O'rta Osiyo emas, balki Markaziy Osiyo respublikalari deb atashni taklif qildilar<sup>2</sup>.

Mustaqillikning ilk yillarida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida chegaraviy va xavfsizlik sohalarida o'zaro ishonchsizlikka asoslangan muhit shakllangan edi. Bunga esa bir qator omillar sabab bo'ldi. Bugun biz tadqiq qilmoqchi bo'lganimiz aynan, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tashqi siyosatda o'zaro ishonchsizlikning kelib chiqish sabablari va bugungi barqaror, o'zaro bog'liq va faravon Markaziy Osiyoni shakllantirish yo'lidagi amalga oshirilayotgan islohot, ularning natijadorligi, davlat rahbarlarining bu yo'nalishdagi siyosiy irodasi va xalqlarning tarixiy mushtarakligi bilan bog'liqdir.

Mustaqillikning ilk davrida Markaziy Osiyo davlari o'rtasidagi yuzaga kelgan kelishmovchiliklar va ishonchsizlikka sabab bo'lgan bir qancha omillarni tahlil qilamiz.

## 1. Chegaralarning noaniqligi va hududiy nizolar

<sup>1</sup> <https://oyina.uz/uz/article/3378>

<sup>2</sup> A.Doniyorov. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi -T.: NIF MSh, 2020. 21 b. (444)

Sovet davrida **ma'muriy** bo'lgan chegaralar mustaqillikdan so'ng **davlat chegaralariga** aylanganligi. Bu esa: Farg'ona vodiysida chegara mojarolari, Anklav va eksklavlar masalasi, Chegaralarning delimitatsiya va demarkatsiya qilinmaganligi kabi bir qancha jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Amerikalik siyosatshunos, Markaziy Osiyo va Kasbiy bo'yi davlari bo'yicha mutaxassis Martha Brill Olcott Markaziy Osiyoni "sun'iy chegaralar bilan bo'lingan mintaqa" deb ataydi va bu holat davlatlararo ishonchni zaiflashtirganini qayd etadi<sup>3</sup>.

## 2. Suv va resurslar bo'yicha manfaatlar to'qnashuvi

Markaziy Osiyoda suv resurslari notekis taqsimlanganligi:

**Yuqori oqim:** Qirg'iziston, Tojikiston

**Quyi oqim:** O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston

Sovet davrida yagona markaziy boshqaruv mavjud bo'lgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin **har bir davlat o'z manfaatidan kelib chiqdi**. Ya'ni har bir davlat o'z manfaatlari yuzasidan tashqi siyosat olib bordi hamda bu yo'lda Markaziy Osiyo mintaqasi uchun nihoyatda zarur bo'lgan suv muammosi kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

R. Collins suv masalasini mintaqaviy sovuqlikning "asosiy struktural sababi" sifatida ko'rsatadi<sup>4</sup>.

## 3. Siyosiy tizimlar va rivojlanish yo'llarining farqlanishi

Davlatlarning mustaqillikdan so'ng **turli siyosiy va iqtisodiy model** tanlaganligi.

Bu borada O'zbekiston – bosqichma-bosqich islohotlar, Qozog'iston – ochiq iqtisodiy integratsiya va Turkmaniston – yakkalanish siyosati olib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu farqlanish **o'zaro ishonch va yaqin hamkorlikka to'sqinlik qildi**.

Amerikalik akademik, Markaziy Osiyo-Kavkaz institutining asoschisi va raisi **S. Frederick Starr** o'z fikrlarida mintaqani "bir makon, ammo turli yo'nalishlar" deb ta'riflaydi<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Olcott, Martha Brill. *Central Asia's New States*. United States Institute of Peace Press, 1996.

<sup>4</sup> <https://www.cambridge.org/core/books/clan-politics-and-regime-transition-in-central-asia/FE9921D610457520CAE0B0E6778BB84D>

<sup>5</sup> Starr, S. Frederick. *Rediscovering Central Asia*. M.E. Sharpe, 1999

#### 4. Tashqi kuchlar ta'siri va geosiyosiy raqobat

Rossiya, AQSh, Xitoy kabi yirik davlatlarning mintaqaga bo'lgan qiziqishi Markaziy Osiyo davlatlarini turli harbiy-siyosiy bloklarga yaqinlashishga va tashqi tayanch izlashga majbur qildi. Bu esa **ichki mintaqaviy birdamlikni susaytirdi** deyishimiz mumkin.

Bu jarayon haqida Amerikaning Kolumbiya universiteti professori **A. Acharya** mintaqaviy integratsiya tashqi kuchlar kuchli bo'lgan hududlarda sekin kechishini ta'kidlaydi<sup>6</sup>.

#### 5. O'zaro ishonch yetishmasligi va siyosiy psixologiya

Yangi mustaqil elitada Sobiq Sovet markaziga nisbatan shakllangan ishonchsizlik tuyg'usining tarqalmaganligi, qo'shni davlatlardan ehtiyotlanish va "yopiq milliy xavfsizlik tafakkuri" ustun edi. Bu holat esa siyosatshunoslikda **"postimperial sindrom"** sifatida izohlanadi<sup>7</sup>.

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatda faol, pragmatik va muvozanatli yondashuv bilan nafaqat o'zining xalqaro nufuzini oshirdi, balki Markaziy Osiyo mintaqasida yangi diplomatik dinamikani shakllantirdi. Bir paytlar sovuq va ziddiyatli bo'lgan qo'shnichilik aloqalari bugun hamkorlik va sheriklik ruhi bilan davom etmoqda. 2016-yildan keyin Yangi O'zbekistonning tashqi siyosatida yankdil mintaqaga g'oyasi muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga Abadiy do'stlik to'g'risidagi Xo'jand deklaratsiyasining imzolanishidan to Samarqandda bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyoning birinchi sammiti va Parlamentlararo ittifoqning Toshkentda bo'lib o'tgan tarixiy 150-assambleyasigacha bo'lgan davrda O'zbekistonning Sharq va G'arb o'rtasidagi konstruktiv vositachi roli oshib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

<sup>6</sup> Acharya, Amitav. *Regionalism and World Order*. Oxford University Press, 2014

<sup>7</sup> Suny, Ronald Grigor. *The Revenge of the Past*. Stanford University Press, 1993.

Shu o'rinda O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatni shunday tizimlashtirish, yondashuvlarni maqbullashtirish, yaqinlashtirish va birga harakat qilish nima uchun muhim, degan savol yuzaga chiqadi.

**Birinchidan**, O'zbekistonda Markaziy Osiyoning, deyarli, yarim aholisi yashaydi. Shu bilan birga ayni payt Markaziy Osiyo mamlakatlari ham iqtisodiy jihatdan o'smoqda.

**Ikkinchidan**, mintaqaning barcha davlatlarida tug'ilish o'sishi sur'ati ijobiy.

**Uchinchidan**, dini, o'tmishi bir bo'lgan xalqlarimiz bir hududda yashab, ikki daryodan suv ichadi. Ulkan salohiyatga ega mintaqamiz dunyo hamjamiyatida iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan o'z jozibasini namoyon etish imkoniyatidan unumli foydalanishi kerak<sup>8</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday savol paydo bo'ladi. Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro ishonchga asoslangan progressiv hamkorligiga xaqlarning tarixiy jarayonlardagi mushtarakligi sabab bo'ldimi yoki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi bunga asos bo'ldimi?

**Tarixiy jarayonlarni o'rganar ekanmiz** Markaziy Osiyo xalqlari butunlay alohida bo'lib qolmagan; ularning tarixi, madaniyati, til va urf-odatlarining ko'plab umumiyliklarga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Tarix davomida bu hududda turli xalqlar doimiy muloqotda bo'lgan, savdo, madaniy almashinuvlar amalga oshgan, va hamkorlik odati mavjud bo'lgan. Bu holat bugungi kunda mintaqaviy ishonchni shakllantirishda **obyektiv madaniy va ijtimoiy poydevor** vazifasini bajaradi. Masalan, umumiy chegaralar, qadimiy Ipak Yo'li savdo an'analari va tilda/madaniyatlarda o'zaro yaqinlik mintaqaviy bog'liqlikni mustahkamlaydi. Bu omillar hamkorlikni boshlash uchun qulay «kontekst» yaratadi.

Faqat tarixiy mushtaraklik mintaqaviy davlatlari o'rtasida avtomatik ishonchni keltirib chiqara olmaydi. Tarixiy bog'lanish ko'pincha kompleks, ziddiyatli va noaniq bo'lishi mumkin — masalan, chegaraviy nizolar yoki iqtisodiy raqobat tarixiy bog'liqlikni tiklash o'rniga uni murakkablashtiradi. Shu sababli tarixiy omil **foydali sharoitlarni**

<sup>8</sup> [https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-faol-tashqi-siyosat-va-mintaqaviy-hamkorlik\\_642532](https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-faol-tashqi-siyosat-va-mintaqaviy-hamkorlik_642532)

**yaratadi**, lekin uni siyosiy qarorlar va kelishuvlarsiz amaliy hamkorlikka aylantirish qiyin bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Siyosiy iroda – progressiv hamkorlikning real dvigateli vazifasini bajaradi.

Xususan, so‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining tashqi siyosatida aniq hamkorlik strategiyasi kuzatiladi.

Bunga misol qilib O‘zbekistonning 2016-yildan boshlab “ochiq va pragmatik” tashqi siyosat yo‘nalishini belgilashi mintaqaviy diplomatik aloqalarni mustahkamlayotganligi, 2018-yildan boshlab davlat rahbarlarining Konsultativ uchrashuvlari mintaqaviy mexanizmga aylanayotganligi va 2025-yil noyabr oyida O‘zbekiston prezidenti Markaziy Osiyo davlatlaridan iborat yangi mintaqaviy tashkilot tuzish taklifini e‘lon qilganligi — bu ham strategik siyosiy tashabbus sifatida qaralmoqda

Bu holatlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarlar siyosiy iroda va strategik qarorlar orqali hamkorlikni real institutlar va mexanizmlarga aylantirishga intilyapti. Bu siyosiy iroda tarixiy bog‘liqlikni amaliy natijalarga aylantiradigan operatsion dvigatel sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy umumiylik shunchaki sharoit yaratadi; ammo tinchlik shartnomalari, iqtisodiy loyihalar (yangi transport yo‘llari, energetika, suv-resurslar bo‘yicha kelishuvlar), hamda mintaqaviy sammitlar orqali o‘zaro ishonch amalda mustahkamlanadi<sup>9</sup>.

Jumladan, 2025-yil 31-mart kuni Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston chegaralarining tutashgan nuqtasini belgilash to‘g‘risidagi bitim imzolangani mintaqada burilish nuqtalaridan biri bo‘ldi. So‘nggi o‘n yilliklarda birinchi marta uch davlat prezidentlari – Shavkat Mirziyoyev, Emomali Rahmon va Sadir Japarov o‘zlarining chegara masalalarini to‘liq hal qilib, kelishuvni Abadiy

<sup>9</sup> [https://www.reuters.com/world/asia-pacific/uzbek-president-proposes-setting-up-bloc-central-asian-states-2025-11-16/?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.reuters.com/world/asia-pacific/uzbek-president-proposes-setting-up-bloc-central-asian-states-2025-11-16/?utm_source=chatgpt.com)

do'stlik deklaratsiyasi bilan mustahkamladilar. Ushbu deklaratsiya mintaqadagi chegaralar muammosini tinchlik yo'li bilan hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi<sup>10</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:

**Birinchidan:** “Yakdil mintaqa” g'oyasi Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining falsafiy asosini tashkil etib, Markaziy Osiyoni faqat geografik hudud emas, balki yagona tarixiy-madaniy va sivilizatsion makon sifatida anglashni nazarda tutadi.

**Ikkinchidan:** Mintaqaviy hamkorlikka to'siq bo'lib kelayotgan muammolar (ishonchsizlik, chegaraviy masalalar, resurslar bo'yicha kelishmovchiliklar) tarixiy emas, balki asosan siyosiy va institutsional xarakterga ega ekani aniqlanadi.

**Uchinchidan:** O'zaro ishonch va tenglik tamoyillari yakdil mintaqa konsepsiyasining markaziy falsafiy negizi bo'lib, bu yondashuv kuch siyosati o'rniga muloqot va kelishuv madaniyatini ilgari suradi.

**To'rtinchidan:** Suverenitetga hurmat va manfaatlar uyg'unligi mintaqaviy integratsiyani majburlovsiz, ixtiyoriy va barqaror jarayon sifatida shakllantirish imkonini beradi.

**Beshinchidan:** Yakdil mintaqa g'oyasi Markaziy Osiyoda tinchlikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim konseptual vositasi bo'lib, u mintaqani global siyosatda mustaqil va bir butun subyekt sifatida namoyon etishga xizmat qiladi.

---

<sup>10</sup> ([https://uza.uz/en/posts/uzbekistan-a-new-hub-of-international-diplomacy\\_708199](https://uza.uz/en/posts/uzbekistan-a-new-hub-of-international-diplomacy_708199))